

## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING YASHASH MANZILLARIDAN UZOQ MUDDATGA KETGAN SHAXSLAR ISHLASHDA ALOHIDA YONDASHUV

*Sobitjonov Asrorjon Akmaljon o'g'li*  
*IIV Akademiyasi 308-guruh kursanti*

**Annotatsiya:** Mazkur malakaviy bitiruv ishida profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyati tushunchasi, ahamiyati, kriminologik tavsifi, xususiyatlari, shuningdek yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini tartibga soluvchi normalar va ularni qo'llash amaliyoti tahlili, yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatiga doir bir qator takliflar va bu boradagi ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari va ularni amaliyotga joriy etish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** huquqbuzarlik, kriminologiya, uzoq muddat, amaliyot, muommo, yashash joy, doimiy istiqomat joyi, nazorot, passport-visa, rejim

**Annotation:** In this dissertation the concept, significance, criminological description, features of the work of the inspector of prevention with citizens who have returned from abroad for a long time, as well as the analysis of norms governing the work with citizens who have returned from abroad for a long time, a number of proposals for working with citizens who have returned to their home countries for a long time from their place of residence, as well as the experience of advanced foreign countries in this area and their implementation in practice.

**Key words:** offense, criminology, long term, practice, problem, place of residence, place of permanent residence, control, passport-visa, regime

**Аннотация:** В данной квалификационной работе раскрыты понятие, значение, криминологическая характеристика, особенности работы инспектора по профилактике над лицами, покинувшими места жительства на длительный период времени, а также нормы, регулирующие трудовую деятельность в отношении лиц, покинувших место жительства. места проживания на длительный период времени и анализ практики их применения, проживания, ряд предложений по трудовой деятельности для лиц, покинувших свои адреса на длительный период времени и опыт передовых зарубежных стран в этом отношении и вопросах их реализации.

**Ключевые слова:** правонарушение, криминология, длительный срок, практика, проблема, место жительства, место постоянного проживания, контроль, паспорт-виза, режим.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish masalasiga alohida e'tibor berildi. Asosiy qonunimizda shaxsning huquq va erkinliklari oliy qadriyat deb belgilab qo'yildi. Respublikamizda davlat tuzilishi va siyosiy hayoti insonparvarlikprinsipi bilan to'ldirilgan bo'lib insonning hayoti, shaxsiy daxlsizligi, erkinligi oliy qadriyat hisoblanadi. Ushbu qadriyatlarni himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash ichki ishlar organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Doimiy yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslarni aniqlash jarayonini samarali qilish kerak.

Xuquqiy demoqratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo yetish yo'lidan borayotgan mustaqil O'zbekistonimizda fuqarolarning tinchligi, osoyishtaligini taminlash ularni jamiyatda bo'layotgan isloxotlar, o'zgarishlar bilan tanishtirish xamda sodir yetilayotgan jinoyatlar xaqida malumot berish va axolining xuquqiy ongini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalari va bilan to'g'ridan-to'g'ri xamkorlikni yo'lga qo'yish dolzarb axamiyat kasb yetmoqda.

*Uzoq muddatga ketgan shaxs* – doimiy yashash manzilidan turli sabablarga ko'ra, ya'ni: ishlash, davolanish, dam olish, sayohat qilish, xizmat safari, o'qish, tanishlarini ko'rib kelish va boshqa maqsadlarda respublika hududidan bir oydan kam bo'lmagan muddatga chiqib ketgan shaxslar.

Bugungi kunda mamlakatimiz fuqarolarining uzoq muddatga chet el davlatlariga chiqishlari va qaytib kelish jarayonlarini tizimli ravishda tashkil etish ichki ishlar organlari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Shu sababli ham uzoq muddatga chet el davlatlariga ketganlar bilanishlash ichki ishlar organlari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib, u bilan tizimning deyarli barcha sohaviy xizmatlari shug'ullanmoqdalar. Ayniqsa, fuqarolarning qonunga xilof tarzda boshqa davlatlarga chiqib ketishlarining oldini olishda ichki ishlar organlari, xususan, profilaktika, tezkor-qidiruv, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish va boshqa bir qator xizmatlarining roli katta.

O'tgan yillar davomida mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasifuqarolarining chet elga chiqishlari tartibini belgilab beruvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi PF-5005-sonli Farmoni, «Huquqbuzarliklar profilaktikasiva jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (14.03.2017 yil) PQ-2833-sonli, «Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi (12.04.2017 yil) PQ-2883-sonli va «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (18.04. 2017 y.) PQ-2896- sonli, «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekistonyoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi (05.07.2017 yil) PF-5106-sonli, «Toshkent shahrida jamoat tartibini

saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida»gi (14.02.2018 yil) PQ-3528-sonli, «Toshkent shahrida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi (19.06.2018 yil) PQ-3786-sonli qarorlari singari normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi asosida ichki ishlar organlari profilaktik faoliyatida tub islohotlar amalga oshirilib, ular yuqori bosqichga ko'tarildi. Bizga ma'lumki, har qanday davlat idorasi ichki imkoniyatlar doirasidava boshqa idoralar bilan hamkorlikni tashkil qilmasdan turib, o'z faoliyatining samaradorligini ta'minlay olmaydi. Jumladan, ichki ishlar idoralari ham o'z gardaniga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan tarkibiy tizimga kiruvchi tarmoq xizmatlari va boshqa huquqni muqofaza qilish idoralari, davlat va jamoat tashkilotlari, qolaversa, jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qiladi va olib boradi.

Huquqbuzarliklarni oldini olish, sabab va sharoitlarini bartaraf etishdagi o'zaro hamkorlik bu-jamoat tartibini saklash, jinoyatlarni ochish va oldini olish va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurash bo'yicha faoliyatini hamkorlikda, kelishilgan jarayonda, qonun va qonun dalolatnomalariga asoslangan qolda uslublar, usullar va xizmat vakolatlaridan samarali foydalanish demakdir.

Profilaktika inspektorlarining jinoyatchilikka qarshi kurash, ularning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi hamkorligini hamkorlikning doirasini nazarga olibikkiga bo'lib o'rganish mumkin. Bular: birinchisi, ichki ishlar idoralarining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda sohaviy xizmat xodimlarning o'zaro hamkorligini o'z ichiga oladigan ichki hamkorlik va ikkinchisi, ichki ishlar idoralarining boshqa huquqni muqofaza qilish idoralari, davlat va jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasa, tashkilotlar va jamoatchilik bilan keng qamrovli aloqani o'z ichiga oladigan tashqi hamkorlikda o'z aksini topadi.

«Uzoq muddat» ishchi guruhlarini tashkil etishdan ko'zlangan *asosiy maqsad* – doimiy yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslarning haqiqiy sonini aniqlash, ularning qaerga va nima maqsadlarda, qancha muddatga ketganligi, hozirgi vaqtda yashayotgan vaqtinchalik manzili, qanday ish va yumush bilan bilan shug'ullanayotganligi, telefon raqami haqida batafsil ma'lumotlar olish, doimiy yashash joylariga qaytib kelgan shaxslar bilan tezkor-profilaktik tadbirlar olib borish va bu boradagi ishlarni samaradorligini yanada yaxshilashdan iborat.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olib, Maqolaman asosida tavsiya takliflarni amaliyotga joriy qilsak, katta natijaga tez va samarali erishamiz. Xususan, Uzoq muddatga ketganlarni nazorat qilish bo'yicha sub'ektlarni xamkorligini qonuniy jihatdan mustaxkamlash;

-Qaytib kelgan fuqarolarni o'z vaqtida xisobdan chiqarish, agar xavf guruxi toifasiga kiradigan bo'lsa ularni nazoratga olish;

-Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni doimiy va vaqtinchalik ish orinlariga joylashtirish, ularning bandligini ta'minlagan ish beruvchi korxonalar, muassasa, tashkilotlarni rag'batlantirish va imtiyozli soliq joriy qilish hamda mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratish;

-Yashash manzilidan uzoq muddatga ketgan shahslar to'g'risida to'plangan ma'lumotlar yetarlicha taxlil qilinib, ketish sabablari o'rganilishi va fuqorolarning chet yilda odam savdosi qurboniga aylanib qolishini oldini olish choralarini kuchaytirish.

-Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolar uchun xuquqiy yordam va psixologik xizmatlar kursatish

### ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2020. – 76.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi. Rasmiy nashr. – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2019.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., «O'zbekiston», 2021. – 56 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., «O'zbekiston», 2017. – 48 b.
6. Mirzajanov Q. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishda huquqiy tarbiya vositalarining ahamiyati. Toshkent 1997.
7. Abdurasulova Q.R. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari // Qonun himoyasida. – 2001. – № 1. – 23–24-b.
8. “Yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari.